



QURILISH ISHLARI

2020- yil yanvar-dekabr oylarida

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida jami 2192,1 mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil qildi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 55,6 mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 36,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 1843,8 mlrd. soʻmni yoki jami qurilish ishlarining 84,1 % ni tashkil etib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 292,7 mlrd. soʻmni tashkil etib oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 105,2 % ni tashkil qildi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu-oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



● 2020- yil yanvar-dekabr

● 2019- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,9 % ni tashkil etadi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 23,3 % ni tashkil etadi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 7,8 % to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan, % da)

2019- yil yanvar-dekabr

8,2



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

23,7



Fuqarolik obyektlarini
qurish

68,1



Bino va inshootlarni
qurish

2020- yil yanvar-dekabr

7,8



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

23,3



Fuqarolik obyektlarini
qurish

68,9



Bino va inshootlarni
qurish



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topadi.




Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari tarkibi

(mlrd. so‘m)

	Jami qurilish ishlari	shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo‘yicha		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik korxonalar va mikrofirmalar	norasmiy sektor
Sirdaryo viloyati	2192,1	55,6	1843,8	292,7
<i>shaharlar</i>				
Guliston	753,9	10,7	694,8	48,4
Shirin	132,9	-	126,6	6,3
Yangiyer	144,0	-	129,3	14,7
<i>tumanlar</i>				
Boyovut	114,5	0,7	78,6	35,2
Guliston	68,8	0,6	43,6	24,6
Mirzaobod	174,6	20,2	133,2	21,2
Oqoltin	78,6	0,2	64,3	14,1
Sardoba	70,2	19,9	30,8	19,5
Sayxunobod	118,6	0,2	100,5	17,9
Sirdaryo	295,6	1,7	223,1	70,8
Xovos	240,4	1,4	219,0	20,0

Hududlarda qurilish ishlarining o‘shish sur‘atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati 103,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Guliston tumanida 109,2 % ni tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o‘shish sur‘ati Sardoba tumanida kuzatilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 141,1 % ni tashkil qildi.




Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1843,8 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 84,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil qildi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 55,6 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 2,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 36,8 % ni tashkil qildi.


Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 292,7 mlrd. so'm yoki jami qurilish ishlarining 13,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil qildi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



○ Nodavlat mulkchilik shakli



○ Davlat mulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 83,8 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,8 % ni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 % punktga kamaydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 2108,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 96,2 % ni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 % punktga ko‘payish) tashkil qildi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 34,4 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 13,5 %, Xovos tumaniga 11,0 %, Mirzaobod tumaniga 8,0 % va Yangiyer shahrida 6,6 % dan to'g'ri keldi.

- Guliston sh.
- Shirin sh.
- Yangiyer sh.
- Boyovut
- Guliston
- Mirzaobod
- Oqoltin
- Sardoba
- Sayxunobod
- Sirdaryo
- Xovos



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi.

Aloqa telefoni: (67) 225-02-37
(67) 236-86-27

